

TOHIR MALIKNING “ALVIDO BOLALIK” QISSASIDAGI OBRAZLAR TALQINI

Jo‘rayeva Mehriniso Safar qizi

O‘zbek filologiyasi fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Mahfuza Muxtorova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasidagi obrazlar, ularning o‘zaro munosabatlari, asarning ahamiyati, jamiyatdagi illatlarni to‘laqonli ochib bera olishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Alvido bolalik”, qahramon munosabati, oilaviy muhit, yetishmovchilik, jinoyat va jazo, tarbiya.

Tohir Malikning quroli so‘z bo‘lib, u so‘zlardan mohirlik bilan shunday foydalangan holda shunday manzaralar yaratadi, chizadiki, o‘quvchilar xuddi o‘sha voqealarda ishtirok etayotgandek, ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgandek bo‘ladi, qahramonlar bilan birga shodlanib, birga ma’yuslanadi. Shu asnoda Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasi ham shunday asarlar qatoridan joy olgandir. Bu asar haqida so‘z yuritar ekanmiz, asar zamonaviy mavzuda yoritilgan bo‘lib, undagi muammo dolzarb va ahamiyatga molikligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Asar yuzasidan fikrlarimizni davom ettirsak, asar bosh qahramonlari Asror, Qamariddin, Salim, Dilfuzalar bo‘lib, ularning dardlari, orzu-umidlari, qiziqishlari turlicha, mutlaqo bir-biridan ajralib turadi, ammo bitta narsa: ularni birlashtirib, jipslashtirib turgan yagona narsa bu kimdandir yoki nimadandir alamzadalik hisoblanib kitobxonni mulohazaga chorlaydi. O‘sha birgina tugun: alamzadalik oqibatida egri yo‘llarga qadam qo‘yishadi. Asror obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, u maktabning eng bilimdon o‘quvchisi. Otasining hofizligi, bu ishga Asroni ham majburlashi unga og‘ir botadi va Qamariddinga yaqinlashtirib jinoyat olamining ilk darvozalarini ochib

beradi. Uning Dilfuza bilan munosabati misolida qanchalar jonkuyar, mehribon inson qiyofasida gavdalanganligini ko‘rishimiz mumkin. Qamariddinga kelsak, qalbida juda ko‘p orzulari bor, lekin jamiyat zulmlaridan qalbi charchagan. Shuningdek, u tug‘ilganidan shunday munosabatlar iskanjasida qolishi shunday inson bo‘lishiga sababchi bo‘lgan. Salim ehtiyojmand, ko‘p bolali oilada yashashi, otasining ichishi, onasining qiyinchiliklari oqibatida farzand tarbiyasi bilan ishi yo‘q. Muhtojlik uni jinoyat ko‘chasiga yetaklagan. Shuningdek, bu asarda eng namunali va ko‘proq yoqqan obraz mayyor Soliyev obrazi hisoblanadi va taqsgina sazovordir. Bu obraz orqali jinoyatchilik va unga qarshi kurash, hech bir jinoyat jazosiz qolmasligi kabi bir qator g‘oyalar ilgari surilgan: Demak, asar qahramonlarining ayanchli yakun topishiga kim aybdor? Masalaning yechimiga keladigan bo‘lsak, Asrorning bu qismatiga otasining ochko‘zligi, o‘zining sodda va irodasizligi sababdir. Agar otasonasi uning tarbiyasiga qaraganda edi bunday oqibatlar sodir bo‘lmas edi nazarimda. Qamariddinning qismati ayanchli yakuniga eng avvalo, onasining yengiltabiatligi sabab va undagi nihoyatda kuchli alamzadalik insonlardan, hamma-hammadan. Agar yoshligida onasi tashlab kelmaganda shunday bo‘lmasmidi balki. Asardagi eng og‘ir va ayanchli yakun Salim obrazida bo‘ldi, o‘zim ham biroz xafa bo‘ldim. Bunga bosh sabab oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onaning e‘tiborsizligidir. Agar oilada sog‘lom muhit bo‘lganda, yuqori lavozimlarda ishlaydiganlardan yordamlar berilganda bunday ayanchli taqdir bo‘lmasmidi, zora. Bundan tashqari asarda Sanjar obrazi ham gavdalanadi. Uning o‘ta darajada erka o‘sganligini asar davomida his etolamiz. Yuqoridagi sanagan obrazlarim muhtojlik oqibatida shu yo‘lga kirgan bo‘lsa, Sanjar obrazida esa hamma narsasi bo‘la turib kayfi-safo uchun shu yo‘lga kirgani ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, otasining o‘ta darajada kirgan berilganligi ”hamma narsa qila olaman” qabilida ish ko‘rishi ham o‘g‘lining qanday tarbiya topganligidan dalolatdir. Asar syujeti haqida gapiradigan bo‘lgan, avvalo, syujet so‘zi fransuzcha "predmet", "Asosga qo‘yilgan narsa" degan ma’noni ifodalaydi. Badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tashkil topuvchi voqealar tizimini anglatadi. "Alvido bolalik" qissasi syujetiga to‘xtaladigan bo‘lsak, asar konsentrik syujet turiga misol bo‘la oladi. Bu syujet turi tadqiqot syujeti deb ham

yuritiladi. Bunda voqea-hodisa sabablari, o‘rganilib atroflicha talqin qilinadi. Ko‘proq detektiv asarlar bunga kiritamiz.

Ushbu yuqoridagi keltirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, asar qahramonlarining qismati bunday ayanchli tus olishida yagona va bosh aybdor jamiyat hisoblanadi. Jamiyatda poraxo‘rlik, jinoyat avj olishi, shuningdek, bola tarbiyasida ota-onaning mas’uliyatsizligini keltirib o‘tishimiz joizdir. Zero, ota-ona bolaning nechida uyga kelishi, nima qilishini nazoratga ola olsagina bu illatlarga chek qo‘yiladi. Asar so‘nggi juda ayanchli yakun topdi. Asrorning oxirida jinoyatga tuxumdan endi chiqqan polapon misoli duch kelishi edi. Shuning uchun ham u jabrlangan insonni hech unutilmadi. Uning ko‘zlari hamma joyda ta‘qib qilar, ayniqsa tunlari uyqu bermasligi uning qanchalik g‘o‘r va soddaligidan nishona edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Malik. "Alvido bolalik" qissasi. 1989.
2. D.Quronov." Adabiyot nazariyasi asoslari" -Toshkent, Navoiy universiteti. 2018.
3. <https://www.tohirmalik.uz>
4. <https://fayllar.org>